


10-1Mat 24 guruh magistrar uning pedagogika kafedrasida katta o'qituvchisi Jumayeva Mehribon Abduvohidovna bilan birgalikda Buxoro Shahar "Somoniy nomidagi madaniyat va istirohat bog'i"ga tashrifi to'g'risida

MA'LUMOTNOMA



Buxoro davlat universiteti Fizika-matematika va axborot texnologiyalari fakulteti Matematika ixtisosligi 1-kurs magistrantlari "Pedagogik kreativlik va kompetentlik" fanidan olgan bilimlarini mustahkamlash va tabiat qo'nyida dars o'tish maqsadida fan o'qituvchisi Jumayeva Mehribon Abduvohidovna bilan birgalikda Buxoro Shahar "Somoniy nomidagi madaniyat va istirohat bog'i"ga tashrif buyurishdi.

Tabiat qo'nyida bolalarga dars o'tish-bu zamonaviy ta'limda tobora ommalashayotgan, sog'lom va samarali yondashuvdir. Ochiq havoda, tabiiy muhitda o'qitish bolaning jismoniy, ruhiy va aqliy rivojlanishiga ta'sir qiladi. Ayniqsa, tanlangan hudud tarixiy ekanligi nur ustida a'lo nur bo'ladi.

Somoniy bog'i – Buxoroning tarixiy-yodgorlik bog'i Buxoro shahri markazida, qadimiy shaharning markaziy qismida, Ismoil Somoniy maqbarasi joylashgan hududda joylashgan. Somoniy bog'i – Buxoro shahrining eng mashhur va tarixiy bog'laridan biridir. U tarixiy qadriyat va zamonaviy obodonlashtirish uyg'unlashgan joy. Ko'plab sayyohlar, ziyoratchilar va mahalliy aholining sevimli maskani hisoblanadi. O'zida Ismoil Somoniy maqbarasi, Chashma Ayub maqbarasi va Buxoro muzeyining ayrim qismlarini jamlagan. Bog'ning markazida joylashgan Ismoil Somoniy maqbarasi IX asrda qurilgan bo'lib, Somoniy sulolasining asoschisi Ismoil Somoniyga bag'ishlangan. Bu maqbara markaziy Osiyodagi eng qadimiy musulmon me'morchiligi namunasi bo'lib, to'liq g'ishtdan qurilgan. Uning atrofida barpo etilgan bog' ham tarixiy-madaniy obidalarini saqlab qolish va ommaga tanitish maqsadida obodonlashtirilgan. Bog'da manzarali daraxtlar, gulzorlar, favvoralar, piyodalar yo'laklari mavjud. Dam olish uchun skameykalar, soyabonli hududlar, bolalar maydonchalari, tungi yoritgichlar o'rnatilgan. Turistlar uchun qulayliklar yaratilgan, tarixiy joylar haqida axborotlar beruvchi belgilar mavjud. Har yili

minglab mahalliy va xorijiy sayyohlar Somoniyilar bog'iga tashrif buyuradi. Tarixiy arxitektura, shinam muhit va tinchlik – bu joyni Buxoroning yuragi sifatida ko'rsatadi.

Darsda barcha magistrLAR faol ishtirok etishdi.

Sana: 02.05.2025